

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalimirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 179-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH

Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlari hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179





JAMOATCHILIK ISHONCHI VA IJRO MAS'ULIYATI: «TASHABBUSLI BYUDJET»NING YANGI BOSQICHDAGI VAZIFALARI

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

mustaqil izlanuvchisi

E-mail: isaparov@senat.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada "Tashabbusli byudjet" mexanizmining ahamiyati hamda Toshkent viloyati misolida uning amaliy natijalari, shu bilan birga, ayrim loyihalarni amalga oshirishda kuzatilayotgan kechikishlar, texnik va huquqiy baholash jarayonlaridagi kamchiliklar, jamoatchilik nazorati mexanizmlaridan foydalanish samaradorligi hamda mablag'lardan oqilona foydalanish bilan bog'liq muammolar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tashabbusli byudjet, parlament nazorati, jamoatchilik nazorati, ochiq byudjet, mahalliy byudjetlar, ijtimoiy infratuzilma, davlat boshqaruvi, byudjet shaffofligi, loyihalar ijrosi, mahalliy tashabbuslar, byudjet mablag'lari samaradorligi.

Аннотация. В данной статье анализируются значение механизма «Инициативный бюджет», а также его практические результаты на примере Ташкентской области, наряду с этим рассматриваются задержки, наблюдаемые при реализации отдельных проектов, недостатки в процессах технической и правовой оценки, эффективность использования механизмов общественного контроля и проблемы, связанные с рациональным использованием бюджетных средств.

Ключевые слова: инициативный бюджет, парламентский контроль, общественный контроль, открытый бюджет, местные бюджеты, социальная инфраструктура, государственное управление, бюджетная прозрачность, исполнение проектов, местные инициативы, эффективность бюджетных средств.

Abstract. This article analyzes the significance of the "Participatory Budget" mechanism and its practical outcomes using the example of the Tashkent region, along with the delays observed in the implementation of certain projects, shortcomings in technical and legal assessment processes, the effectiveness of public oversight mechanisms, and problems related to the rational use of budgetary funds.

Keywords: participatory budget, parliamentary oversight, public control, open budget, local budgets, social infrastructure, public administration, budget transparency, project implementation, local initiatives, efficiency of budgetary funds.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvini demokratlashtirish, byudjet jarayonlarida ochiqlikni ta'minlash va fuqarolarning qaror qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan islohotlar izchil davom etmoqda. Ana shunday muhim mexanizmlardan biri bo'lgan "Tashabbusli byudjet" tizimi aholining mahalliy ahamiyatga ega masalalarni hal etishdagi ishtirokini yangi bosqichga olib chiqdi.

Aholining o'z hududidagi dolzarb muammolarini hal etishdagi ishtirokini kuchaytirish, mahalliy tashabbuslarni rag'batlantirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida 2021 yildan buyon "Ochiq byudjet" axborot portalida mazkur tashabbus faol ravishda o'tkazib kelinmoqda.





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli qarori bilan 2019 yildan boshlab byudjet mablag'larini taqsimlashda fuqarolar ishtirokining tuman (shahar)lar byudjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutuvchi mexanizm joriy etilgan.

Bundan tashqari, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalarini ishlab chiqish hamda joylardagi dolzarb muammolarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida Prezidentimizning 2021 yil 13 apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarori ham qabul qilingan.

Qarorga ko'ra, 2021 yil may oyidan boshlab yurtimizning har bir hududidan 1 tadan tuman (shahar)larda, 2022 yil 1 yanvardan esa respublikaning barcha tuman (shahar)larida tegishli byudjetlarning tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish bo'yicha yangi tartib joriy etilgan. Bugungi kunda esa jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar byudjetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foizi miqdori yo'naltirilmoqda.

Shuningdek, mahalliy byudjet mablag'larining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi sayyor o'rganishlar orqali muntazam ravishda o'rganib borilmoqda. Mazkur monitoring natijalari esa tizimni yanada takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tashabbusli byudjet jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza so'nggi yillarda izchil takomillashtirilib borilmoqda. Oliy Majlis Senati Kengashining 2025 yil 17 dekabrda "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi KQ-280-V-sonli qarori bilan tuman (shahar) byudjetlari mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom takomillashtirildi.

Ushbu qaror bilan bir qator muhim yangiliklar joriy etildi: deputat tashabbusi loyihasi joriy etildi; aholi va davlat o'rtasida sherikchilik asosida loyihalarni moliyalashtirish tartibi joriy etilib, ushbu jarayon doirasida loyihalarni birgalikda moliyalashtirish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi; loyihalarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Majburiy ijro byurosi va boshqa undiruvchi organlar tomonidan tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi fuqarolar tashabbusi jamg'armalariga sud va boshqa organlar ijro hujjatlariga asosan undiruvlar qo'llash taqiqlandi.

Shuningdek, mahalla soni 15 ta va undan kam bo'lgan tuman va shaharlardagi barcha mahallalarga, "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" sifatida TOP-100 talik ro'yxatga kirgan mahallalarga, aholi va davlat o'rtasida sheriklik





asosida moliyalashtiriladigan loyihalarga tashabbusli byudjet doirasida ketma-ket ikki marotaba g'olib deb topilgani munosabati bilan loyiha kiritish imkoniyatini cheklash qoidasi qo'llanilmasligi belgilandi. Mazkur o'zgarishlar tizimning aholi uchun yanada ochiq va adolatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda "Tashabbusli byudjet" tizimi orqali fuqarolar nafaqat mahalliy muammoni ko'tarmoqda, balki uni hal etish uchun byudjet mablag'larini qaysi yo'nalishlarga sarflash yuzasidan ham o'z fikrlarini bildirmoqda. Bu esa byudjet mablag'larining xalq ehtiyojlariga muvofiq taqsimlanishiga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Tashabbusli byudjet mexanizmining Toshkent viloyati misolidagi amaliy natijalarini tahlil qilishda "Ochiq byudjet" axborot portali ma'lumotlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda prokuratura organlarining nazorat natijalari statistik tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash, sintez va umumlashtirish usullari asosida o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Toshkent viloyatida 2024-2025 yillarda tashabbusli byudjet doirasida amalga oshirilgan ishlar tahlili mazkur mexanizmning aholi o'rtasida keng ommalashganini ko'rsatmoqda. O'tgan ikki yil davomida qariyb to'qqiz mingga yaqin loyiha (2024 yilda 4 410 ta, 2025 yilda 4 518 ta) ilgari surilib, ularning minglab fuqarolar tomonidan qo'llab-quvvatlangani natijasida umumiy qiymati qariyb 1,2 trln so'mlik 983 ta loyiha g'olib deb topilgan.

Hududlarda eng ko'p qo'llab-quvvatlangan tashabbuslar yo'l infratuzilmasini yaxshilash, ta'lim va tibbiyot muassasalarini ta'mirlash, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish kabi aholi kundalik hayotiga bevosita ta'sir qiluvchi yo'nalishlarga to'g'ri kelmoqda. Bu holat fuqarolarning ijtimoiy infratuzilma holatiga nisbatan talabchanligi ortib borayotgani hamda davlat tomonidan yaratilgan ishtirok mexanizmlariga ishonchi kuchayib borayotganini anglatadi.

Biroq, tashabbuslarni shakllantirish va ularni moliyalashtirish qanchalik muhim bo'lsa, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ham shunchalik ahamiyatli hisoblanadi. Chunki aholi tomonidan qo'llab-quvvatlangan har bir loyiha ortida muayyan hududning ijtimoiy muammosi, fuqarolarning kutilmasi va davlat siyosatiga bo'lgan ishonchi turadi.

Tahlillar tashabbusli byudjet jarayonlarining keyingi bosqichlarida hal etilishi lozim bo'lgan qator masalalar mavjudligini ham ko'rsatdi. Ayrim holatlarda loyihalarning o'z vaqtida yakunlanmasligi, qurilish va ta'mirlash ishlarining belgilangan muddatlardan kechikishi, moliyalashtirish hamda ijro jarayonlari o'rtasidagi nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2025 yilda g'olib deb topilgan loyihalarning 332 tasida (71 foiz) qurilish-ta'mirlash va





xarid ishlari yakunlanib, foydalanishga topshirilgan bo'lsa, qolgan 136 ta loyihada ishlar hanuzgacha tugatilmagan.

E'tiborli jihati shundaki, ayrim tashabbuslar bo'yicha mablag' ajratilgan bo'lsa-da, ob'ektlar to'liq foydalanishga topshirilmagan yoki qurilish ishlari turli sabablarga ko'ra cho'zilib ketgan. Loyihalarni dastlabki baholash va saralash jarayonlarida yetarli texnik yoki huquqiy o'rganishlar o'tkazilmaganligi sababli keyinchalik ularni amalga oshirishda muammolar yuzaga kelgan. Bu esa tashabbuslarni ovoz berish bosqichiga chiqarishdan oldin ularning amaliy imkoniyatlarini har tomonlama baholash zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, jamoatchilik nazorati mexanizmlaridan samarali foydalanish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, "Ochiq byudjet" axborot portalida g'olib deb topilgan loyihalar mualliflari tomonidan loyihalar amalga oshirilishining barcha bosqichlarini kuzatish hamda bajarilgan ishlarni real vaqt ko'rinishida baholab borish imkoniyati yaratilgan. Bunda loyihalar amalga oshirilgandan so'ng tashabbuskorlar tomonidan bajarilgan ishlar portalning "Jamoatchilik nazorati" bo'limi orqali "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarda baholanishi hamda qonun buzilishi holatlari yoki kamchiliklar kuzatilganda shikoyat tarzida portal orqali "Favqulodda xaba" qoldirilishi mumkin.

Ushbu mexanizm doirasida 2025 yil davomida portal orqali fuqarolar tomonidan bir qator favqulodda xabarlar qoldirilgan. Jumladan, 5 tasi bo'yicha ishlar yakuniga yetkazilmagan bo'lsa, 4 ta holatda loyihalar «qizil» toifada baholanib, 2 tasida kamchiliklar bartaraf etilmaganligi sababli e'tirozlar bildirilgan. Vaholanki, tashabbusli byudjetning asosiy maqsadi nafaqat mablag' ajratish, balki fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlashdan iborat. Demak, jamoatchilik fikriga munosabat ham mazkur tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bundan tashqari, prokuratura organlari tomonidan "Tashabbusli byudjet" jarayonlarida g'olib deb topilgan loyihalar ijrosi ustidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarida 7 ta loyiha bo'yicha jami 206,5 mln so'mlik qonunbuzilish holatlari aniqlangan. Nazorat tadbirlari davomida aniqlangan moliyaviy va qurilish sohasidagi qonunbuzilishlar, sifatsiz bajarilgan ishlar, davlat xaridlaridagi ayrim kamchiliklar esa mablag'lardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish zarurligini bildiradi. Bu borada buyurtmachi tashkilotlar, pudratchilar va nazorat qiluvchi idoralarning mas'uliyatini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Umuman olganda, tashabbusli byudjet mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, mahalliy muammolarni aholi ishtirokida hal qilish va byudjet jarayonlarining ochiqqligini ta'minlashga xizmat qilayotgan muhim mexanizm hisoblanadi. Endigi vazifa ushbu tizimning ijro bosqichida ham yuqori samaradorlikni ta'minlash, har bir g'olib loyihani aholi kutgan natijaga aylantirishdan iborat.

Zero, tashabbusli byudjetning muvaffaqiyati ovozlar soni yoki ajratilgan mablag'lar hajmi bilan emas, balki qurilgan maktab, ta'mirlangan yo'l,





yaxshilangan infratuzilma va eng muhimi, fuqarolarning davlat siyosatiga bo'lgan ishonchi bilan o'lchanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://senat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy veb-sayti.
2. <https://president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
3. <https://openbudget.uz> – O'zbekiston Respublikasi «Ochiq byudjet» portal.
4. <https://www.imv.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti.
5. <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**